

## “Qurilish ilmda va ta’limida innovatsiya, integratsiya va hamkorlik; Integration, partnership and innovations in constructions science and education (IPICSE-2020)” mavzusidagi VII - xalqaro ilmiy konferensiya o‘z faoliyatini boshladi



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 09.10.19y. PQ-4486-sonli qaroriga hamda “2020 yil – ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” davlat dasturiga muvofiq institutimizda joriy yil 11-12 noyabr kunlari dunyoning eng kuchli 400 ta oliy o‘quv yurtlari tarkibidagi Milliy Tadqiqotlar Moskva davlat qurilish universiteti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, “O‘zbekgidroenergo” AJ, Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qozog‘iston-nemes universiteti bilan hamkorlikda «Qurilish ilmda va ta’limida innovatsiya, integratsiya va hamkorlik; Integratsiya, partnyorstvo i innovatsii v stroitelnoy nauke i obrazovanii; Integration, partnership and innovations in constructions science and education (IPICSE-2020, <http://ipicse2020.ru>)» nomli VII - xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkaziladi.






Gidroenergetika, suv resurslaridan unumli foydalanish, qishloq va suv xo‘jaligini iqlim o‘zgarishi sharoitiga moslashtirish, sohadagi mavjud muammolar yechimini aniqlash bo‘yicha xalqaro hamkorlikda ilmiy izlanishlarni rivojlantirish va yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda xorijning nufuzli universitetlari bilan hamkorlikni mustahkamlash konferensiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Konferensiyaning quyidagi ilmiy seksiyalarida ma’ruzalar muhokama etiladi:

- Qurilish materiallari.
- Qurilishda ishochlilik va xavfsizlik.
- Qurilishda muhandislik va intellektual (smart) tizimlar.
- Qurilish konstruksiyalarini modellashtirish va mexanika.
- Qurilishda menejment.
- Melioratsiya va gidrotexnika qurilishi.
- Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash, elektrlashtirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalari.

Konferensiya faoliyatida AQSh, Fransiya, Germaniya, Kanada, Eron, Xitoy, Hindiston, Vetnam, Janubiy Koreya kabi davlatlardan 300 dan ortiq olimlar va ilmiy izlanuvchilar onlayn tarzda ishtirok etmoqda. Muhokamadan o‘tgan ilmiy maqolalar SCOPUS, WEB OF SCIENCE xalqaro bazalar ro‘yxatidagi nufuzli ilmiy-texnik jurnallarda chop etiladi. Konferensiyaning ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, hamkor univeritetlar, institutlar va ishlab chiqarish tashkilotlarining rahbarlari tabrik so‘zlari bilan ishtirok etishdi:

✘	Pavel Alekseevich Akimov t f d professor RAASN akademini
✘	Shoimkulovich, pedagogika fanlari doktori, professor.

	am Pardaeovich Umurzoqov, iqtisod fanlari doktori, professor.	ari
		liyot instituti rektori Bazarov Orifjan
		jurilish
		ent
	kt" Aksiyadorlik Jamiati bosh direktori <b>Axmedov Alibek</b> <b>Ilxomovich</b>	

VII - xalqaro ilmiy konferensiya o'z faoliyatini 2020 yil 12 noyabr kuni Toshkent vaqti bilan soat 12:00da ilmiy seksiyalarda davom ettiradi:

<https://zoom.us/j/99421750285?pwd=WGw1c2VjYlhiVERFQUtFQTY0VFBYUT09>